

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JO'RAYEV VOXID TOJIMAMATOVICH

**TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNI
BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASH ASOSIDA
IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari doktori (DSc)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Содержание автореферата докторской диссертации (DSc)
по педагогическим наукам**

**Contents of the doctoral dissertation (DSc)
in pedagogical sciences**

Jo‘rayev Voxid Tojimatovich

Та‘limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish..... 3

Жураев Вохид Тожимаматович

Развитие социокультурной компетентности студентов на основе подготовки к управленческой деятельности в условиях цифровизации образования..... 31

Jo‘raev Voxid Tojimatovich

Developing socio-cultural competence in students through preparation for management activities in the context of educational digitalization..... 60

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 64

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH
VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

JO'RAYEV VOXID TOJIMAMATOVICH

**TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TALABALARNI
BOSHQARUV FAOLIYATIGA TAYYORLASH ASOSIDA
IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.07– Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.DSc/Ped554 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bimm.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xakimova Muhabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'xtasinov Ilxomjon Madaminovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Mamarajabov Mirsalim Elmirzayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Xo'jayev Alijon Atabekovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil "10" "01" soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, faks: (99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 202-01-20, e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "16" "12" kuni tarqatildi.
(2024-yil 16.12 dagi 11 -raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

A.S.Djurayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ya.O'.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda informatsion va g'oyaviy kurashlar jarayoni keskinlashgan murakkab davrda talabalarda ijtimoiy hayotga ongli munosabatni tarkib toptirish orqali ijtimoiy-madaniy tarbiyasini shakllantirish texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Rossiya, AQSh, Fransiya, Xitoy, Yaponiya davlatlari ta'lim muassasalarida kreativ texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish, ta'lim va tarbiya jarayonlarini loyihalashtirish, yangi ta'lim standartlarini yaratish, ta'lim paradigmalari va texnologiyalarini integratsiyalash jarayonlarini raqamli texnologiyalarning konseptuallik, tizimlilik, boshqaruvchanlik va samaradorlik talablariga moslashtirish bo'yicha yirik loyihalarni amaliyotga tatbiq etishga doir keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot markazlarida boshqaruv faoliyatini rivojlantirishning innovatsion va pragmatik muammolari, zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonlarini raqamlashtirish, axborotlarni qabul qilishning pedagogik va psixologik asoslari hamda ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish, masofaviy ta'limni amalga oshirish, raqamli ta'lim texnologiyalarining didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida media savodxonligini va ta'lim muassasalarining standart media ta'minotini rivojlantirish, ularning web-brauzerlar, ilmiy matn bilan ishlash kompetentligini takomillashtirish, raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishga doir masalalar yechimini hal etilishiga ilmiy tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda oliy ta'lim sohasida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalariga asoslangan holda innovatsion texnologiyalar, xususan, raqamli ta'lim texnologiyalari orqali talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha taraqqiyot strategiyasida "Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish"¹ ustuvor vazifalar etib belgilangan. Natijada talabalarning ijtimoiy-madaniy va pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni ham rivojlantirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-son "Davlat oliy ta'lim muassasalarining

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning boshqaruv faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan: Association for Educational communications and technology – AECT (AQSh), University of Sorbonne (Fransiya), Belfield Pedagogical University (Germaniya), Centre of Increasing Pedagogical Qualification on Base Manchester University (Buyuk Britaniya), Miyagi Pedagogical University (Yaponiya), Seoul National University (Janubiy Koreya), Moskva davlat pedagogika universitetida (Rossiya) zamonaviy o'qitish nazariyasi va metodikasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, talabalarning boshqaruv faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar Princeton university (AQSH), Association for Educational Communications and Technology – AECT (AQSH), Belfield pedagogical university (Germaniya), National Advice on pedagogical technology (Angliya), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university (Angliya); Ta'lim Akademiyasi (Rossiya), Pedagogik texnologiyalar (Rossiya), "Ta'lim texnologiyalari navigatori" axborot-metodik markazi (Rossiya) kabi tan olingan ilmiy markaz va oliy ta'lim muassasalarida ham olib borilmoqda. Modifikasion ta'limni tashkil etishda IT-texnologiyalaridan foydalanish asosida ta'lim sifatini oshirish metodikasi yaratilgan (Massachusetts Institute of Technology, AQSh); oliy ta'lim muassasalarida o'quv, ilmiy tadqiqot va masofaviy jarayonlarni tashkil etish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashni boshqarish (World Bank and UN DP), o'quv jarayonida olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalari ishlab chiqilgan, o'quv muassasalarida nazorat tizimini to'g'ri shakllantirish (University of California, AQSh), RAEX (Rossiya), menejment tamoyillarini ta'lim sohasiga joriy etish metodologiyasi takomillashtirilgan.

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalarga erishilgan: Talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasining mohiyati va tuzilishi takomillashtirilgan (Association for Educational Communications and Technology – AECT), raqamli

ta'lim sharoitida oliy ta'lim tashkilotlari talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari umumevropa ehtiyojlariga funksional va faoliyatli yondashuvlar asosida takomillashtirilgan (Belfield Pedagogical University), ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini samarali rivojlantirish modeli ichki va tashqi pedagogik omillarni aniqlash asosida takomillashtirilgan (Centre of Increasing Pedagogical Qualification on Base Manchester University), muayyan mezonlar, ko'rsatkichlar va darajalarga nisbatan ta'limni raqamlashtirish sharoitida boshqaruv xodimlarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi darajasini ochib beradigan diagnostika materiallarini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan (University of Sorbonne), boshqaruv xodimlarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishning loyihaviy-konstruktiv texnologiyalariga oid innovatsion metodlar yaratilgan (Seoul National University), oliy ta'lim tashkilotlari pedagoglarini metodik jihatdan tayyorlashda dasturlashtirish texnologiyasi omillari va komponentlari kasbiy ehtiyojlar asosida takomillashtirilgan (Miyagi Pedagogical University, Japan), ta'lim muassasasini raqamlashtirish sharoitida boshqarishning zamonaviy texnologiyalari takomillashtirilgan (Moskva davlat pedagogika universiteti).

Jahonning oliy ta'lim tizimida raqamli ta'lim sharoitida talabalarning boshqaruv faoliyatidagi ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish, kasbiy kompetentligini rivojlantirish tuzilmalarini ishlab chiqish, axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim sharoitida boshqarish bo'yicha ta'limning har bir sohasida IT-texnologiyalarini joriy etish, raqamli texnologiyalar tushunchalarini amalga oshirish, uning ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishga ta'sirini baholash va boshqa qator ilg'or hamda zamon talabiga mos ustuvor yo'nalishlarga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz ta'lim muassasalarini boshqarishning mazmuni, ta'lim muassasalari va uzluksiz ta'lim tizimi boshqaruv kadrlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi imkoniyatlari muammosi bo'yicha I.M.Abdullayeva, B.S.Abdullayeva, R.Sh.Axlidinov, Q.S.Abduraximov, U.Sh.Begimkulov, M.Vaxabov, D.M.Mamatkulov, U.I.Inoyatov, N.J.Isakulova, R.G.Isyanov, M.D.Pardayeva, M.T.Mirsoliyeva, X.A.To'raqulov M.D.Matnazarova, G'.T.Otamurodov, N.X.Raxmankulova, G.G'.Rashidova, Sh.E.Kurbanov, M.A.Mustafakulov, F.A.Abdullayev, E.A.Seytxalilov, A.A.Xalikov, A.A.Xujayev, D.M.Xakimova, V.A.Sadiyev, Y.U.Ismadiyarov, R.H.Djurayev, D.Yu.Samatova, D.Sh.Temirov, B.Sh.Usmonov, Sh.T.Yunusov, M.Yuldashevlar, "kompetentlik" va uning o'ziga xosligi, ilmiy-nazariy asoslari muammolari bo'yicha N.A.Muslimov, Sh.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov, N.N.Karimovalar² ilmiy izlanishlar olib borishgan.

² Begimkulov U.Sh. va boshq. Axborot texnologiyalari: Ўқув қўлланма. – Т.: Ношир, 2009. – 368 б.; Иноятлов У.И. Теоретические и организационно-методические основы управления контроля качества образования в профессиональном колледже: Дис. ... д-ра пед. наук. – Т., 2003. – 327 с.; Mirsoliyeva M.T., Ishmuhammedov R.J. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish: Metodik qo'llanma. – Т.: Fan va texnologiya, 2014; Рашидова Г.Ф. Бўлажак тарих ўқитувчиларининг ижтимоий-маданий компетенциясини ривожлантириш технологиялари: Пед. фанл. бўйича фалс. д-ри (PhD) ... дис. Автореф. – Ч., 2022. – 60 б.; Усмонов Б.Ш.,

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish V.G.Apalkov, M.Bayram, N.D.Galskova, N.I.Geiz, T.G.Grushevskaya, G.V.Yelizarova, N.M.Lebedeva, O.A.Leontovich, I.L.Plujnik, A.P.Sadoxin³, T.G.Stefanenkolar tomonidan tadqiq etilgan.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda raqamli ta'lim, ijtimoiy-madaniy tarbiya, raqamli didaktika, raqamli pedagogika singari masalalar C.Bazalgette, D.Buckingham, Herbert Marshall McLuha, L.Masterman, K.Elizabeth, I.H.Fuchs⁴ kabi pedagog-psixologlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqotning oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari pejalari bilan bog'liqligi. IL-21101893-sonli "Kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyiha (2021-2023) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalar boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ijtimoiy-madaniy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablarni aniqlashtirish;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalar boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish modelini takomillashtirish;

talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning yangi yondashuvlarini o'rganish va amaliyotga tadbiiq etish ko'nikmasini takomillashtirish;

talabalar ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning obykti sifatida ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni bo'lib, Farg'ona davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Guliston davlat universiteti va Buxoro davlat universitetidan jami 660 nafar talabalar jalb etilgan.

Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртрларида ўқув жараёнини кредит-модуль тизимида ташкил килиш: Ўқув қўлланма. – Т.: Тафаккур, 120 б.; Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фанл. д-ри ... Дис. – Т., 2007. – 315 б.; Qo'ysinov O. Kasb ta'limi metodikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari metodik qo'llanma. – Nordic_Press, 2024. – № 2.

³ Садохин А.П. Межкультурная компетентность: сущность и механизмы формирования: Дис. ... д-ра культ. – М., 2009.

⁴ Bazalgette, Cary, Buckingham D. Literacy, media and multimodality: a critical response // Literacy. – 2013. – № 47.2. – P. 95-102; Buckingham, David, et al. The media literacy of children and young people: a review of the research literature. – 2005; Masterman, Len. The media education revolution // Canadian Journal of educational communication. – 1993. – № 22.1. – P. 5-14; Fuchs, Ira H. The promise and challenge of new technologies in Higher education // Proceedings of the American Philosophical Societ. – 1998. – № 142.2. – P. 191-206.

Tadqiqotning predmetini ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishning shakl, metodlari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik va ilmiy – metodik manbalar, didaktik materiallar, o'quv reja va dasturlar, o'quv-meyoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, suhbat, kuzatish, anketa so'rovi, test, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi o'quv jarayoni subyektlarining boshqa madaniyat va jamoa vakillari bilan kognitiv, kommunikativ o'zaro ta'sirini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va ijtimoiy munosabatlar to'plami sifatida aniqlangan shaxslararo ta'sir usullarining uyg'unligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning motivatsion-munosabatli kompetensiyasi raqamli ta'lim vositalarining maqsadli rivojlanib borishiga pedagogik jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatishi asosida aniqlashtirilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish modeli o'quv amaliyotida faoliyat mezonlariga muvofiq belgilangan reproduktiv, samarali, ijodiy darajasini bosqichma-bosqich amalga oshirish asosida takomillashtirilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi: internet texnologiyalari, telekommunikatsiyalar, boshqaruv faoliyatlariga fanlararo integratsiyaning subyekt-subyekt munosabatlarini samarali ma'lumot almashish va xulq-atvor reaksiyalarini tartibga solish majmuasidan foydalanish asosida takomillashtirilgan;

talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari raqamli texnologiyalarning eduleader.uz platformasida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bosqichlarida boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning intellektual maqsadli rivojlantirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

“Pedagogik menejment” va “Elektron pedagogika” nomli darsliklar nashr etilgan va amaliyotga joriy etilgan;

m.eduleader.uz platformasi yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarini boshqarishda samarali vositalarni tanlash uslubi taklif etilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari (ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar orqali fikrlash qobiliyatini oshirish, faoliyatli shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini joriy etish tamoyillari) mazmuni takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llangan yondashuvlar, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlarining representativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan ilmiy g‘oya va takliflar, uslubiy qo‘llanmalar, usullar va boshqa amaliy natijalar ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishga, ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan boshqarish tizimini ishlab chiqish, uning samaradorligini baholash, samarali vositalarini tanlash, istiqbolda rivojlanish strategik variantlarini tanlash chora-tadbirlarini ishlab chiqishga hamda asosli va ishlab chiqilgan pedagogik model ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish jarayonining salohiyati haqidagi nazariy g‘oyalarni aniqlashtirishga, talabalar tomonidan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirishning rejalashtirilgan natijalariga erishishni belgilaydigan aniqlashtirilgan pedagogik sharoitlar to‘plami ta’limni raqamlashtirish sharoitida o‘quv jarayonini tashkil etish nazariyasini rivojlanishiga yaqindan yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, olingan tahliliy natijalardan ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishning yaratilgan modeli va ushbu kompetensiyani shakllantirishning maksimal individual darajasiga erishishni ta’minlaydigan pedagogik sharoitlarni joriy etishda, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish holatini aniqlashtirish uchun mezon-diaagnostika vositalarini yaratish va sinovdan o‘tkazishda, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishda interfaol topshiriqlar, testlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishda, mustaqil ta’lim ishlarini bajarish, tadqiqot natijalaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimidagi tashkilotlarning o‘quv jarayonida, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi o‘quv jarayoni subyektlarining boshqa madaniyat va jamoa vakillari bilan kognitiv, kommunikativ o‘zaro ta’sirini ta’minlovchi bilim, ko‘nikma va ijtimoiy munosabatlar to‘plami sifatida aniqlangan shaxslararo ta’sir usullarining uyg‘unligini ta’minlash asosida takomillashtirilganligiga oid tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-88-sonli “O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotida tolerantlik tamoyilining tutgan o‘rni (qadimgi davrdan to hozirgi vaqtga qadar)” mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 6-dekabrda 11-05-7052/04-

sonli dalolatnomasi). Natijada, ta'lim tizimida madaniy xilma-xillik va tolerantlikni targ'ib etishga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishni takomillashtirishga xizmat qilgan;

shaxslararo munosabatlar, tolerantlik va madaniy xilma-xillikni tushunishga qaratilgan amaliy mashqlar, ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning motivatsion-munosabatli kompetensiyasi raqamli ta'lim vositalarining maqsadli rivojlanib borishiga pedagogik jihatdan ijobiy ta'sir ko'rsatishi asosida aniqlashtirilganligi oid tavsiyalardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan OT-F1-88-sonli "O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida tolerantlik tamoyilining tutgan o'rni (qadimgi davrdan to hozirgi vaqtga qadar)" mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 6-dekabrda 11-05-7052/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, "Tolerantlik madaniyati" platformasiga joylashtirilgan ma'lumotlar nazariy va metodik tavsiyalar bilan boyitilgan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish modeli o'quv amaliyotida faoliyat mezonlariga muvofiq belgilangan reproduktiv, samarali, ijodiy darajasini bosqichma-bosqich amalga oshirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar Farg'ona davlat universitetida bajarilgan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi OT-F-1-100-raqamli "Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy-madaniy faoliyatining badiiy ijodiyot vositalari asosida nazariy va amaliy takomillashuvi" nomli fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 6-dekabrda 11-05-7052/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, iqtisodiyot talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini oshirishning o'quv-uslubiy taminotini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari raqamli texnologiyalarning elektron darsliklar, kompakt disklar, audio-video materiallardan hamda masofaviy va kompyuterli o'qitish texnologiyalaridan foydalanish bosqichlarida boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning intellektual maqsadli rivojlantirish asosida takomillashtirilganligi borasidagi ilmiy natijalaridan Respublika Tojik milliy madaniy markazi Farg'ona viloyat bo'linmasi tomonidan amalga oshirilgan "Do'stlik – osoyishtalik garovi" mavzusidagi 1-raqamli davlat granti loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 6-dekabrda 11-05-7052/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, loyiha ishtirokchilarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyalari shakllantirilib, boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning intellektual va maqsadli rivojlanishi ta'minlangan;

ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirishning o'quv amaliyotida faoliyat mezonlariga muvofiq belgilangan reproduktiv, samarali, ijodiy darajasini bosqichma-bosqich amalga oshirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan "Pedagogik menejment" nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 1-avgust sanasidagi 363-son

buyrug‘i, 342-363-01-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, o‘quv jarayonida ijodiy va samarali yondashuvni rivojlantirish orqali talabalarda mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish va mas‘uliyatli boshqaruv faoliyati ko‘nikmalari shakllantirildi;

talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari raqamli texnologiyalarning m.eduleader.uz platformasida o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish bosqichlarida boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning intellektual maqsadli rivojlantirish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan “Elektron pedagogika” nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-mart sanasidagi 55-son buyrug‘i, 55156-raqamli nashr guvohnomasi). Natijada, platformada amalga oshirilgan interaktiv mashg‘ulotlar va treninglar talabalarga madaniyatlararo muloqot qilish, jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash va boshqaruv mas‘uliyatini o‘z zimmasiga olishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta maqola, shulardan, 10 tasi respublika, 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosalar va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 268 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma‘lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta‘limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamlashtirish sharoitida ta‘lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari hamda talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda ijtimoiy-madaniy kompetentlikning o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Xalqaro tajribalar tahlilidan ko‘rish mumkinki, hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi oliy ta‘lim tizimining mazmuni va tashkil etilishini tubdan o‘zgartirib, o‘quv jarayonini yanada samaraliroq bo‘lishiga xizmat qilishi, bu jarayon axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida talabalarning ijtimoiy-madaniy tayyorgarligini boshqarishni optimallashtirishni talab qilishi, raqamli

pedagogika va onlayn ta'lim texnologiyalari oliy ta'limda keng qo'llanilishi, ijtimoiy-madaniy kompetensiya boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini, madaniy va ijtimoiy meyorlarning xilma-xilligini tushunishni o'z ichiga olishi turlicha tahlil qilingan. Globallashuv va pandemiya ta'sirida raqamli texnologiyalar nafaqat jamiyatda, balki ta'lim tizimida ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli texnologiyalar oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini tubdan o'zgartirib, unda shaxsiy va kommunikatsiya makonini kengaytirmoqda. Ushbu jarayon ta'lim mazmuni, o'quv-uslubiy va texnologik ta'minotni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Respublikaning davlat dasturlari va kasbiy standartlari doirasida ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) yordamida boshqaruv faoliyatiga tayyorlov tizimi ijtimoiy-madaniy tayyorgarlikni optimallashtirishni maqsad qilib qo'yimoqda.

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va talabalarni zamonaviy kasbiy tayyorlashga keng imkoniyat yaratadi. AKTning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi texnik, metodik va mazmuniy komponentlarni o'z ichiga oladi. Bu komponentlar yordamida o'quv jarayoniga kompyuter va internetdan foydalangan holda yangi axborot manbalarini kiritish imkoniyati yaratilmoqda.

Ilmiy-nazariy manbalar mazmuni tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'limni raqamlashtirish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning tajribalari, masalan, Janubiy Koreyaning SMART ta'lim loyihasi, AQShning raqamli universitet modellari va Finlyandiyaning FOUAS platformasi kabi loyihalar sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar yaratgan. O'zbekistonda ham MOODLE, Platonus kabi platformalar orqali masofaviy ta'lim tizimi rivojlantirilmoqda.

Muammoning nazariy tahlili: "raqamlashtirish", "boshqaruv", "boshqaruv faoliyati", "ijtimoiylashuv", "madaniyat", "kompetensiya", "kompetentlik" va "ijtimoiy-madaniy kompetensiya" boshqa asosiy tushunchalarni asoslash va qiyoslash imkonini berdi. Bular tadqiqotimiz obyektlaridan biriga aylandi va mazkur dissertatsiya ishi materiallarida izchil aks ettirildi. Chunonchi, pedagogik adabiyotlarda «boshqaruv» turli (biologik, ijtimoiy, texnik) tabiatli uyushgan (tashkil qilingan) tizimlarning, ularning ma'lum strukturasi saqlab qolinishi, faoliyat rejimining qo'llab-quvvatlanishi, dasturi va maqsadining amalga oshirilishini ta'minlaydigan elementi, funksiyasi sifatida talqin qilinadi.

Ilmiy-kategorik tahlillar asosida biz "Ijtimoiy-madaniy kompetensiya" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berdik.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya – bu shaxsning jamiyatda madaniyatlararo muloqotga moslashish, turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda samarali muloqot qilish, muammolarni hal etish va qarorlar qabul qilish qobiliyati hamda ushbu jarayonlarda universal qadriyatlar, madaniy xilma-xillik va ijtimoiy mas'uliyatni inobatga olgan holda faoliyat yuritishga qodir bo'lishini ifodalovchi integrativ sifatlar majmuidir.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning asosiy tarkibiy jihatlari 1-jadvalda aks ettirilgan:

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning asosiy tarkibiy jihatlari

№	Asosiy tarkibiy jihatlari	Mazmuni
1	Madaniyatlararo muloqotga moslashuvchanlik	– turli madaniy muhitlarda samarali va hurmatli muloqot qilish
2	Qaror qabul qilish qobiliyati	– ijtimoiy va madaniy kontekstda murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish
3	Universal qadriyatlarni anglash	– inson huquqlari, erkinlik va xilma-xillikni qadrlash hamda ularga mos faoliyat olib borish
4	Amaliy moslashuvchanlik	– turli madaniy va ijtimoiy vaziyatlarga moslashib, ijodkorlik bilan harakat qilish qobiliyati
5	Ijtimoiy javobgarlik	– jamiyat oldidagi mas‘uliyatni anglab, jamoatchilik manfaatlariga xizmat qilish

Shuningdek, rahbar va yetakchi tushunchalari o‘rtasidagi farqlarga ham alohida e‘tibor qaratiladi. Ko‘pincha “rahbar” va “yetakchi” atamaları bir xil ma‘noda qo‘llaniladi, ammo ular orasida sezilarli farq mavjud. Yetakchi har doim ham tashkilotning rasmiy boshqaruvchisi bo‘lmaydi, balki u guruh a‘zolariga ta‘sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega shaxsdir. U guruhni birlashtiradi, ularga yuksak maqsadlarga yetishish uchun ilhom beradi va kerakli ma‘lumot hamda bilim bilan qo‘llab-quvvatlaydi. Rahbar esa tashkilotning rasmiy boshqaruvchisi sifatida uning faoliyatini maqsadga yo‘naltirish bilan shug‘ullanadi.

Rahbar va yetakchi rollari bir-birini to‘ldiradi. Ularni qat‘iy ajratish har doim ham samarali natija bermasligi mumkin. Shu bois, rahbarning yetakchilik fazilatlariga ega bo‘lishi, shuningdek, yetakchining rahbarlik qobiliyatlarini o‘zida shakllantirishi tashkilot muvaffaqiyatining kaliti bo‘lishi mumkin (2-jadval).

Yetakchi va rahbarning asosiy xususiyatlari va farqlari

№	Yetakchi (lider)	Rahbar
1	Yetakchining vazifasi guruhni ruhlantirish va g‘oyani amalga oshirishga ishtiyoq uyg‘otish	Rahbarning vazifasi rejalashtirish, ishni tashkillashtirish va vazifalarni bo‘lib berishdan iborat
2	Yetakchi innovatsiya qiladi, ya‘ni yangi g‘oyalar yaratadi	Rahbar esa ularni amalga oshirish jarayonini boshqaradi
3	Yetakchining orqasidan unga ergashuvchilari bor	Rahbarning esa unga bo‘ysunuvchi ishchilari bor
4	Yetakchining nazari odamlarda, guruh a‘zolarida bo‘ladi	Rahbarning e‘tibori tizim va tashkillashtirishda bo‘ladi
5	Yetakchi ishonch qozonishga ahamiyat bersa	Rahbar nazorat ostiga olishga harakat qiladi.
6	Yetakchi uzoqni ko‘zlaydi	Rahbar qo‘l ostidagi ishlarni bajarishga ko‘proq ahamiyat beradi
7	Yetakchi nima? va nima uchun? deb so‘rsa	Rahbar qanday? va qachon? Savollarga javob izlaydi
8	Yetakchi original g‘oyalarni yaratadi	Rahbar esa taqlid qiladi, ya‘ni o‘xshatishga harakat qiladi
9	Yetakchi to‘g‘ri ish qiladi	Rahbar ishni to‘g‘ri qiladi

Umuman olganda, ijtimoiy-madaniy kompetensiya madaniy o‘zaro munosabatlarda o‘zini to‘g‘ri tutish va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunish va hurmat qilish qobiliyatini anglatadi.

Talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish muammosiga murojaat qilishimiz zamonaviy fuqarolik jamiyatida madaniyatlarning o‘zaro aloqasi va munosabati jarayonlarining faollashishi bilan bog‘liq bo‘lib, ular ma‘naviy rivojlangan, o‘zgaruvchan fikrlaydigan, muloqotning lingvistik-madaniy va lingvistik-pragmatik tarkibiy qismlarini hisobga olgan holda, boshqa madaniyat ma‘ruzachilari bilan ziddiyatsiz muloqot qilish ko‘nikmalari va qobiliyatlariga ega bo‘lgan ijodiy shaxsni nazarda tutadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari”** deb nomlanib, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning roli, ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari hamda ijtimoiy-madaniy tadbirlar maydonida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida yetakchiligini shakllantirishning konseptual tahlili bayon qilingan.

Ilmiy izlanishlar ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni takomillashtirish (axborot, kommunikativ, baholash kompetensiyalari; o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘zini rivojlantirish qobiliyati) elektron o‘quv modullari (axborot, amaliy, uslubiy ta‘minot, nazorat) orqali amalga oshiriladi. Ushbu asarlar interfaol, kommunikativ, audiovizual usullar va o‘rganish algoritmgiga asoslangan ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli ta’lim modullarining didaktik imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Tadqiqotimiz doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan interfaol vazifalar katta qiziqish uyg‘otmoqda. Biz axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan interaktiv vazifalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim didaktik salohiyatni ta’kidlaymiz. Ya’ni: veb-kvest, telekommunikatsiya loyihasi, tematik havolalar ro‘yxati, multimedia albomi, misollar to‘plami, xazina ovi, raqamli hikoya, viki lug‘at, viki loyihasi, viki insho, viki portfolio.

Biz talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini takomillashtirishda raqamli ta’limning didaktik salohiyatining tarkibiy qismlarini aniqladik (3-jadval).

3-jadval

Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini takomillashtirishda raqamli ta’limning didaktik salohiyati

№	Komponentlar	Mazmuni
1	Kontent komponenti	(ta’limning ijtimoiy-madaniy mazmunini o‘zlashtirish vaqti, sur’ati, hajmi, o‘quv materialini o‘zlashtirish ketma-ketligi bo‘yicha shaxsiylashtirish; muhim miqdordagi ma’lumotlarga tezkor kirish, uning hissiy tarkibiy qismini mustahkamlash orqali ta’limning ijtimoiy-madaniy mazmunini o‘zlashtirish uchun motivatsiyani

		aktuallashtirish, o'zingizning tarmoq tarkibingizni yaratish, o'quv materiallarining dolzarbligi va xilma-xilligi)
2	Qiymat komponenti	(talabalarni ijtimoiy-madaniy elektron aloqaga kiritish, ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega tadbirlarni tarmoq formatida o'tkazish orqali xorijiy madaniyatlarga, jahon madaniy merosi obyektlariga nisbatan qadriyat munosabatini samarali shakllantirish)
3	Faoliyat komponenti	(mustaqil ta'lim va kognitiv faoliyat ko'nikmalarini samarali rivojlantirish, o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini tarbiyalash, tadqiqot ko'nikmalari, ijtimoiy-madaniy ma'lumotlarni qayta ishlash ko'nikmalari, mustaqil ish samaradorligini oshirish orqali ta'lim faoliyati va mustaqillik, axborot va ta'lim makonini tashkil etish va jamoaviy faoliyat)
4	Kommunikativ komponent	(haqiqiy lingvistik va ijtimoiy-madaniy tarmoq tarkibining keng tafovutlari; ta'limning interaktivligi; elektron aloqani tashkil etish; turli xil aloqa usullari va telekommunikatsiya texnologiyalari yordamida talabalarni kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish darajasi bo'yicha farqlash)
5	Boshqarish va tuzatish komponenti	(treningda tezkor fikr-mulohaza; operatsion pedagogik tuzatish; o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi tuzatish; mustaqil ishni masofadan boshqarish)

Tadqiqotimiz davomida "Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari"ni aniqlovchi jadval yaratildi (4-jadval).

4-jadval

Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shartlari

№	Pedagogik shartlar	Tavsifi	Misollar va tavsiyalar
1	Texnologik infratuzilma yaratilishi	Ta'lim jarayonida raqamli platformalar, onlayn kurslar, va texnologiyalarni samarali ishlatishga imkon beruvchi infratuzilma va vositalarni joriy qilish	Onlayn platformalar (Google Classroom, Moodle) dan foydalanish, internet tezligi va sifatini oshirish, virtual laboratoriyalarni tashkil etish
2	O'qituvchilarning raqamli savodxonligi	O'qituvchilarni zamonaviy texnologiyalarni ta'limda qo'llash bo'yicha maxsus trening va kurslarga jalb etish	Raqamli pedagogika bo'yicha malaka oshirish kurslari, o'qituvchilar uchun interaktiv o'quv qo'llanmalar yaratish
3	Interaktiv o'quv usullari	Talabalarining ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish uchun interaktiv va ijodiy yondashuvlarni ta'lim jarayoniga qo'llash	Keys-stadi usuli, onlayn munozaralar, jamoaviy loyiha ishlari, madaniyat va jamiyat mavzularida virtual forumlar tashkil etish

4	O'quv kontentini moslashtirish	Talabalarning ijtimoiy-madaniy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mavzularni raqamli formatda ishlab chiqish va ularga moslashtirish	O'quv materiallarini multimediya formatida taqdim etish, madaniy hamkorlik va kommunikatsiyaga doir interaktiv video darslar tayyorlash
5	Madaniy kompetensiyalarga yo'naltirish	Ijtimoiy va madaniy kontekstda talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalar va mashg'ulotlar tashkil qilish	Onlayn xalqaro hamkorlik loyihalari (masalan, madaniy almashuv dasturlari), jamiyatga xizmat qilish bo'yicha virtual tadbirlar
6	Refleksiv tahlilni qo'llash	Talabalarga o'z faoliyatini baholash va rivojlantirishga yordam beradigan refleksiv faoliyat mexanizmlarini taqdim etish	Onlayn kundalik yuritish, o'z-o'zini baholash platformalarini ishlab chiqish, virtual mentorlik tizimlarini joriy qilish
7	Hamkorlikdagi o'quv muhitini yaratish	Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlovchi onlayn vositalar va muloqot platformalaridan foydalanish	Ochiq onlayn kurslar (MOOC), kollaborativ loyiha platformalari, talabalar uchun jamiyat madaniy hayoti bilan bog'liq tadbirlarni tashkil qilish
8	Shaxsiylashtirilgan ta'lim	Har bir talabaga uning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos keladigan shaxsiy ta'lim yo'nalishini taqdim etish	Onlayn diagnostika testlari, moslashtirilgan o'quv dasturlari, shaxsiy rivojlanish rejalari asosida o'qitish
9	Madaniy mazmunli resurslardan foydalanish	Ta'lim jarayonida madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni rivojlantiruvchi resurslar va darsliklardan foydalanish	Virtual muzey va kutubxonalardan foydalanish, madaniy mavzularda vebinarlar, onlayn kitob klublarini tashkil etish
10	Rag'batlantirish tizimi	Talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishdagi yutuqlarini tan olish va rag'batlantirish	Sertifikatlash, raqamli belgi va mukofotlar tizimi, madaniyatga oid loyihalardagi ishtirok uchun maxsus stipendiyalar taqdim etish

Ushbu jadval ta'limni raqamlashtirish jarayonida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik shartlarni yoritish imkonini beradi. Shunday qilib, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish, avvalo, boshqaruv tashkilotidagi kommunikativ tamoyillarning yangilanib borishini ta'minlashni talab qiladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish boshqaruv jarayonlarida samarali muloqotni tashkil etish, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, turli madaniyatlararo

aloqalarni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy texnologiyalarni boshqaruv faoliyatida qo'llashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv boshqaruv xodimlarini nafaqat texnik jihatdan, balki kommunikatsion va madaniy jihatdan ham zamonaviy talablar darajasiga moslashtiradi.

Yangi o'zgarishlarga moslashuvchanlik va ijtimoiy-madaniy xabardorlik talabalar uchun jamiyat ehtiyojlariga mos innovatsion yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ularning boshqaruv jarayonlaridagi ishtirokini samarali qiladi, balki jamiyatda barqaror rivojlanish jarayonlarini ta'minlashga yordam beradi. Zamonaviy boshqaruv tizimining samaradorligi ko'p jihatdan talabalarning yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy-madaniy loyihalarda faol ishtirokini qo'llab-quvvatlashga bog'liq.

Mamlakatimizda zamonaviy ta'lim sharoitida talabalar o'rtasida ijtimoiy-madaniy tadbirlar maydonida yetakchilikni shakllantirishning o'rni katta. Bunday tadbirlar talabalarning muloqot, ijodkorlik, jamoada ishlash va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa oliy ta'lim sifati uchun belgilangan yuqori talablarga javob beruvchi malakali kadrlarni tayyorlash jarayoniga sezilarli hissa qo'shadi.

M.Sharifxo'jayev va Y.Abdullayevlarning fikriga ko'ra, boshqaruv samaradorligi o'z tabiati bilan murakkab jarayon bo'lib, uni faqat bir yoki ikki ko'rsatkich bilan baholash imkonsizdir. Boshqaruv samaradorligi ko'p qirrali bo'lib, u jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va texnologik ehtiyojlarini qamrab oluvchi kompleks ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Shu sababli, boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish uchun ko'p yo'nalishli yondashuv zarur bo'lib, bu talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Shunday qilib, talabalarning ijtimoiy-madaniy tadbirlarda yetakchilik qobiliyatlarini shakllantirish va ularni boshqaruv tizimining kelajakdagi faol ishtirokchilari sifatida tayyorlash zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayon oliy ta'lim sifatini oshirish va jamiyatda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Bunda talabalarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va innovatsion qobiliyatlarini rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Dissertatsiyaning **“Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning didaktik ta'minoti”** deb nomlangan uchinchi bobida ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim muassasasini boshqarish, ta'lim muassasasini raqamlashtirish sharoitida boshqarishning zamonaviy texnologiyalari, ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish modeli ishlab chiqilgan.

Ta'lim muassasalarini raqamlashtirishda foydalaniladigan platformalar

Tasnifi	Platformalar nomi									
	Human Resource Management Systems	Learning Management Systems (LMS)	Time Tracking and Attendance Software	Alfa CRM	HEMIS (Higher Education Management Information)	EDU Management Platform	Moodle	Microsoft Teams	Google Classroom	Uzbekistan National e-Learning Platform (UzNESP)
Xodimlarni boshqarish	✓		✓		✓	✓	✓			✓
O'qituvchilarni ishga qabul qilish	✓					✓				
Ish haqi va kompensatsiyalarni boshqarish	✓		✓							
Marketing va qabul jarayonlarini boshqarish	✓			✓	✓	✓		✓		✓
O'quv jarayonini optimallashtirish		✓		✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓
Onlayn ta'lim va masofaviy o'qitish		✓					✓		✓	
O'quv materiallarini boshqarish		✓			✓	✓	✓		✓	✓
Integratsiya va moslashuvchanlik			✓		✓		✓		✓	✓
Talabalar bilan ishlash	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓
Baholash va natijalarni qayd etish		✓			✓	✓	✓	✓	✓	✓
Vaqtni kuzatish			✓		✓					
Ta'tillar va dam olish kunlarini boshqarish			✓		✓					
Ota-onalar bilan aloqalarni boshqarish				✓						
Tahlil va hisobot berish	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓
Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓	✓

Raqamlashtirish jarayoni axborot resurslarini boshqarish, ma'lumotlarni to'plash va saqlash jarayonlarini rasmiylashtirish, boshqaruv tuzilmasidagi o'zgarishlar va majburiyatlarni qayta taqsimlash kabi vazifalarni qamrab oladi.

Ta'lim muassasalarining raqamli sharoiti ma'lumotlarning to'liqligi va integratsiyasini ta'minlab, turli dasturlar va foydalanuvchilar uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etadi. Raqamli ta'lim muassasalarida ma'lumotlarning izchilligi va xavfsizligini ta'minlash, kirish huquqlarini boshqarish va axborot xizmatlaridan samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlash talab etiladi. Raqamli ta'limning samaradorligi qarorlarni qabul qilish jarayonini tezlashtirish, ishonchli ma'lumotlardan foydalanish orqali yaxshilanishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasalari uchun raqamli ta'lim sharoitining asosiy talablari va xususiyatlari ko'rib chiqilgan bo'lib, ular boshqaruv vazifalarida axborot xizmatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi.


Raqamli ta'lim sharoiti ma'lumotlar integratsiyasini ta'minlab, tahlil qilish va qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarining samaradorligini oshiradi. Raqamlashtirilgan boshqaruv texnologiyalari ta'lim jarayonlarini optimallashtirish, rahbariyat qarorlarini tezlashtirish va asoslashga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan axborot tizimlaridan ta'lim jarayoniga oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimini raqamlashtirish maqsadida Raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi" (HEMIS – Higher Education Management Information Systems) keng joriy qilindi. Ushbu axborot tizimi "Ma'muriy boshqaruv», "O'quv jarayoni", "Ilmiy faoliyat" va "Moliyaviy boshqaruv va statistika" axborot tizimlarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagi tashkiliy tuzilma to'g'risidagi ma'lumotlar xodimlarni boshqarish tizimiga kiritilishi va test tizimida, talabalar kontingentini boshqarishda, o'quv dasturlari va akademik ko'rsatkichlar tizimida qo'llanilishi bilan ta'minlanadi. Talabalar va o'quv dasturlari haqidagi ma'lumotlar akademik boshqaruv tizimida saqlanadi va test sinovlarida qo'llaniladi. Sinov natijalari esa mazkur tizimda qayta ishlanadi va tahlil qilinadi, bu esa akademik jarayonlarni samarali boshqarishga imkon yaratadi. Boshqaruv texnologiyalari esa, boshqaruv jarayonini optimallashtirish va ratsionalizatsiya qilish maqsadida operatsiyalar va tartiblar tizimini o'z ichiga oladi.

O'zgaruvchan tashqi muhitda eng mos keladigan vaziyatli yondashuv bo'lib, uning mohiyati muayyan vaziyat yoki muammoning belgilarini hisobga olgan holda tartibni tanlash algoritmini asoslashdan iborat. Vaziyatli yondashuv bilan boshqaruv texnologiyasi tegishli tartiblarni tanlash va ularga kiritilgan axborotni o'zgartirish, tashkiliy ta'sirlarni amalga oshirish bo'yicha harakatlar ketma-ketligi sifatida belgilanadi.

Boshqaruv texnologiyasi sxemasiga quyidagilar kiradi:



1-rasm. Boshqaruv texnologiyasi sxemasi

Boshqaruv texnologiyasining samaradorligi nafaqat vaqt va xarajatlarni tejashda, balki o'zgaruvchan tashqi muhitda tashkilotning barqarorligi hamda omon qolishini ta'minlashda ham namoyon bo'ladigan yakuniy natijadir.

Boshqaruv texnologiyasi samaradorligi mezonlariga quyidagilar kiradi:

oddiylik (boshqarish texnologiyasi keraksiz murakkab bo'lmasligi kerak, oraliq qadamlar yoki operatsiyalarni o'z ichiga olishi kerak);

moslashuvchanlik (o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish);

ishonchlilik (ba'zi xavfsizlik chegarasi, zaxira mexanizmining mavjudligi);

iqtisodiy samaradorlik (texnologiya samarali bo'lishi mumkin, ammo iqtisodiy emas);

ishlashning qulayligi (yaxshi ishlab chiqilgan texnologiya ishlashga majbur bo'lgan odamlar uchun noqulay bo'lsa, foydasiz bo'ladi).

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishning eduleader.uz platformasidan foydalanish mexanizmiga to'xtalib o'tamiz.

eduleader.uz platformasi ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha talabalarga mo'ljallangan onlayn dastur hisoblanadi.

Dastur nomi "Muvaffaqiyat sari yo'l: kelajak rahbarlari uchun ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish" deb nomlanadi.

Ushbu onlayn dastur zamonaviy globallashtirilgan dunyoda muvaffaqiyatli yetakchi bo'lishni xohlaydigan talabalar uchun ishlab chiqilgan. Dastur ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, turli madaniyatlar bilan samarali aloqa qilish va inklyuziv muhit yaratish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishni maqsad qiladi.

Dastur boshqaruv, biznes, marketing, ta'lim va ijtimoiy fanlar sohalarida oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan. Bunda yetakchilik xususiyatlarini

rivojlantirishni va xalqaro jamoalarda ishlashni rejalashtirayotgan barcha talabalar ishtirok etishi mumkin.

Dasturning asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilandi:

ijtimoiy-madaniy kompetentsiyalarning ahamiyatini oshirish;

madaniy farqlarni anglash va ularning xulq-atvor, aloqa va qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sirini o'rganish;

turli madaniyat vakillari bilan samarali aloqa qilish ko'nikmalarini shakllantirish; inklyuziv muhit yaratish va turli xil jamoalarda ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish;

boshqa madaniyatlarga empatiya qilishni rivojlantirish;

globallashtirish muhitda ishlash va turli madaniyatli jamoalarda yetakchilik qilishga tayyorlash.

Ta'lim formati onlayn platforma, mustaqil ish va onlayn uchrashuvlarni o'z ichiga oladi. Onlayn platformada ma'ruza materiallar, interaktiv mashqlar, videodarslar, amaliy kayslar va muloqot uchun forumlarga kirish imkoniyati taqdim etiladi. Ma'ruza materiallari, darsliklar, slaydlar va tushuntirish materiallaridan iborat bo'lib, interaktiv mashqlar orqali talabalar bilimni mustahkamlashadi. Videodarslar yetakchi mutaxassislar tomonidan tayyorlangan bo'lib, real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish va muammolarni hal qilish bo'yicha amaliy caselar beriladi. Forumlar talabalar o'rtasida fikr almashish va savol-javoblarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Mustaqil ish talabalarning har bir modul bo'yicha bilimlarini testlardan o'tkazish, topshiriqlar bajarish va muhokamalarda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Har bir modul yakunida talabalar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga mo'ljallangan yozma ishlar, loyiha yaratish va taqdimot tayyorlash kabi topshiriqlarni bajaradilar. Onlayn uchrashuvlarda o'qituvchilar va ekspertlar bilan real vaqt rejimida muloqot qilinadi, talabalarning savollariga javob beriladi va amaliy caselar muhokama qilinadi.

Baholash talabalarning nazariy bilimlarini testlar orqali, amaliy topshiriqlar va loyihalarni bajarish orqali hamda onlayn uchrashuvlarda faol qatnashish orqali amalga oshiriladi. Talabalar o'z bilim va ko'nikmalarini reflektiv esse yozish orqali tahlil qilib, shaxsiy o'sish jarayonlarini aks ettiradilar. Nazariy bilimlar avtomatlashtirilgan onlayn testlar orqali baholanib, natijalar bo'yicha darhol qayta aloqa beriladi. Amaliy topshiriqlar real hayotga mos vaziyatlarga asoslangan bo'lib, jamoaviy ishlarda talabalar faolligi va ijodkorlik darajasi ham baholanadi.

Onlayn dastur quyidagi afzalliklarga ega: moslashuvchanlik, interaktivlik, amaliy yo'naltirilganlik va arzonlik.

Materiallarga istalgan vaqtda va joydan kirish imkoni mavjud bo'lib, talabalar o'z o'quv jadvalini shaxsiy ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etishlari mumkin. Video, o'yinlar va simulyatsiyalar kabi interaktiv ta'lim texnologiyalari orqali o'quv jarayoni qiziqarli va samarali bo'ladi.

Real hayotdagi case-lar bilan ishlash va kasbiy sohadagi ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. An'anaviy ta'lim dasturlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan tejamkor bo'lib, transport va yashash joyi kabi xarajatlarni yo'q qiladi.

Qo‘shimcha materiallar tarkibiga madaniyatlararo muloqot va xilma-xillikni boshqarish bo‘yicha tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati, ixtisoslashgan onlayn resurslar va tashkilotlarga havolalar, shuningdek, madaniyatlararo o‘zaro muloqot mavzulariga bag‘ishlangan kitoblar va filmlar ro‘yxati kiradi. Madaniyatlararo psixologiya va boshqaruvga oid kitoblar va maqolalar bilan bir qatorda, xalqaro tashkilotlar saytlariga havolalar, madaniy xilma-xillikni boshqarish bo‘yicha onlayn treninglar ham mavjud. Shuningdek, talabalar uchun “Madaniyatlararo aloqalar asoslari”, “Xalqaro biznes madaniyati” kabi kitoblar va “The Interpreter”, “Gandhi”, “Crash” kabi filmlar tavsiya etiladi. Ushbu dastur talabalarga bilim va ko‘nikmalarni kengaytirish, shaxsiy o‘shishni ta‘minlash va real hayotdagi vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan tajribani taqdim etadi.

Ta‘limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash orqali ularning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini takomillashtirish jarayonini modellashtirish tadqiqotning asosiy yo‘nalishi sifatida tanlanadi. Ushbu yo‘nalishda quyidagi maqsadlar belgilangan:

1. Raqamlashtirilgan ta‘lim sharoitida talabalar o‘rtasida kommunikatsion, aksiologik va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish.


2. Talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashda raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali samarali o‘quv modelini yaratish. Raqamli ta‘lim muhitida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirish.

3. Bu yerda modellashtirishning nazariy asoslari, jumladan, Y.K.Babanskiy va boshqa olimlarning pedagogik jarayonlarni modellashtirishga oid ishlari tahlil qilinadi.

Ta‘limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi va model maqsad, metodologik, pedagogik jarayon, natijaviy komponentlari hamda motivatsion, konseptual, mazmunli, jarayonli, natija bloklariga asoslanadi (2-rasm).

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyani takomillashtirish har bir mezonning mazmunini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar to‘plami bilan belgilanadi, bu esa ushbu kompetensiyaning past, o‘rta va yuqori darajalarini aniqlashga imkon beradi (6-jadval).

Keling, mezonlarni va ularning tegishli ko‘rsatkichlarini batafsil ko‘rib chiqaylik. Motivatsion mezoni ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning motivatsion komponentiga mos keladi. Ushbu komponentning ko‘rsatkichlari: turli jamiyatlar va lingvistik jamoalar madaniyatiga haqiqiy kognitiv qiziqishni ifodalash; turli madaniy jamiyatlar va lingvistik jamoalar vakillari bilan yetarli darajada o‘zaro ta‘sir o‘tkazish uchun ijtimoiy-madaniy aloqaning yetakchi rolini bilish; boshqa madaniyat vakillarining turmush tarziga bag‘rikenglikning namoyon bo‘lishi, dunyoning boshqa ijtimoiy-madaniy manzarasini tushunish, aloqa sheriklarining fikrlari va pozitsiyalariga ochiqlik.



2-rasm. Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish modeli

**Mezonlarga muvofiq talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini
takomillashtirish ko'rsatkich darajalari**

№	Mezonlar	Daraja	Ko'rsatkich
1	Motivatsion	Past	ijtimoiy-madaniy muloqotning ahamiyatini yetarli darajada bilmaydi; boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga qiziqish bildirmaydi; turli madaniyatlar va ularning vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq rad etadi
		O'rta	ijtimoiy-madaniy muloqotga ijobiy munosabatda bo'ladi; boshqa madaniyatlarga yetarlicha kognitiv qiziqish ko'rsatadi; turli madaniyatlar va ularning vakillarining o'ziga xos xususiyatlariga hamdardliksiz tushunish bilan munosabatda bo'ladi
		Yuqori	turli jamiyatlar va lingvistik jamoalar madaniyatiga chinakam kognitiv qiziqishni ifodalaydi; zamonaviy dunyoda ijtimoiy-madaniy muloqotning yetakchi rolini anglaydi; boshqa madaniyat odamlarining turmush tarziga nisbatan yuqori darajadagi bag'rikenglikni namoyish etadi
2	Kognitiv	Past	o'quv dasturini ishlab chiqish jarayonida olingan boshqa xalqlarning madaniyati to'g'risida kam stereotipik bilimlarga ega; odob-axloq, muloqot va xulq-atvor shakllari va normalari to'g'risida bilim yo'q
		O'rta	shaxsiy manfaatlar doirasida boshqa mamlakatlarning madaniyati va o'z madaniyati to'g'risida mamlakatga xos va ijtimoiy-madaniy jihatdan o'ziga xos bilimlarga ega; odob-axloq qoidalari, aloqa va xulq-atvor shakllari va normalari to'g'risida boshlang'ich bilimlarga ega
		Yuqori	o'z vatani madaniyati va boshqa mamlakatlar madaniyati to'g'risida to'liq va to'g'ri mamlakatga xos va ijtimoiy-madaniy jihatdan o'ziga xos bilimlarga ega; odob-axloq qoidalari, aloqa va xulq-atvor shakllari va normalari to'g'risida ko'p qirrali bilimga ega
3	Faoliyatli	Past	boshqa madaniyat hodisalarini uning vakillari pozitsiyasidan talqin qilish qiyin; boshqa madaniyat vakillari bilan o'zaro aloqada nizolar; ijtimoiy-madaniy o'zaro aloqa sharoitida ularning xatti-harakatlarini qanday qilib adekvat baholashni bilmaydi
		O'rta	u boshqa madaniyat hodisalarini uning vakillari pozitsiyasidan vaziyatga qarab talqin qila oladi; ijtimoiy-madaniy o'zaro munosabatlarda o'zini vazmin tutadi; ijtimoiy-madaniy o'zaro aloqaning turli holatlarida har doim ham o'z xatti-harakatlarini yetarli darajada baholamaydi
		Yuqori	har doim boshqa madaniyat hodisalarini uning vakillari pozitsiyasidan to'g'ri talqin qiladi; ijtimoiy-madaniy o'zaro aloqada doimo hamkorlik qiladi; o'z xatti-harakatlari haqida fikr yuritishga qodir

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning kognitiv komponenti kognitiv mezonga mos keladi. Uning ko'rsatkichlariga o'z mamlakatlari va boshqa mamlakatlarning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik xususiyatlari, odob-axloq qoidalari, turli jamiyatlardagi xulq-atvor qoidalari, o'rganilayotgan madaniyat an'analari va urf-

odatlari, og‘zaki nutqning milliy va madaniy xususiyatlari to‘g‘risida mamlakatga xos bilimlar to‘plami kiradi.

Faoliyatli mezoni ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning faoliyatli komponentiga mos keladi. Ushbu komponentning ko‘rsatkichlari: boshqa madaniyat hodisalarini uning vakillari pozitsiyasidan talqin qilish, o‘z va boshqa madaniyatning ijtimoiy-madaniy hodisalarini taqqoslash ko‘nikmalarini shakllantirish; ijtimoiy-madaniy muloqot holatlarini tahlil qilish, nizolarning oldini olish va hal qilish; turli madaniyat vakillari bilan o‘zaro munosabatlarga qarab vositalar yordamida muloqot qilish; ijtimoiy-madaniy o‘zaro aloqaning turli holatlarida o‘z xatti-harakatlarining variantlarini o‘z va boshqa madaniyat pozitsiyasidan baholash.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning kognitiv komponenti kognitiv mezonga mos keladi. Uning ko‘rsatkichlariga o‘z mamlakatlari va boshqa mamlakatlarning tabiiy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik xususiyatlari, odob-axloq qoidalari, turli jamiyatlardagi xulq-atvor qoidalari, o‘rganilayotgan madaniyat an‘analari va urf-odatlari, og‘zaki nutqning milliy va madaniy xususiyatlari to‘g‘risida mamlakatga xos bilimlar to‘plami kiradi.

Dissertatsiyaning **“Pedagogik tajriba-sinov ishlarining sifat va samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida tajriba-sinov ishlari mazmuni va natijalari bayon etilgan. Tadqiqot davomida ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tayyorlangan tashkiliy-pedagogik, ilmiy-metodik ishlanmalar, ilgari surilgan nazariyalarni amaliyotga sifatli joriy etish va uni kuzatish orqali samaradorlikni aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi.

Tajriba-sinovda nazariy (analiz, sintez, qiyosiy tahlil qilish, normativ-hujjatlar, pedagogik, didaktik ilmiy-metodik tadqiqot natijalarini o‘rganish, umumlashtirish) va empirik (so‘rovnoma, anketa, diagnostika, suhbat va pedagogik eksperiment o‘tkazish, kuzatish) hamda matematik-statistik (statistik materiallarni yig‘ish, reytinglarni aniqlash va baholash, tajriba-sinov ishlarining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, qayta ishlash) metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot davomida tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan respondentlardan tajriba hamda nazorat guruhleri shakllantirildi. Tajriba-sinov ishlariga OTMLarining “Iqtisodiyot” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining 568 nafar 3-4 kurs talabalar va 92 nafar magistrilar jami 660 nafar respondent-talabalar jalb etildi (7-jadval).

7-jadval

Tajriba-sinovning anketa-so‘rovnomasida ishtirok etgan respondentlar

Tajriba-sinov maydonlari	Respondentlar soni		Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
	Bakalavriat	Magistratura		
TDIU	150	25	90	85
FarDU	143	22	85	80
GulDU	130	20	75	75
BuxDU	145	25	85	85
Jami	660		335	325

Tajriba-sinov ishlarini “Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish”

mavzusi asosida quyidagi bosqichlarda tashkil qilish mumkin:

1. Aniqlovchi bosqich (2021-2022-yillar) davomida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasining dastlabki darajasini aniqlash asosiy maqsad sifatida belgilandi. Ushbu bosqichda diagnostika vositalari sifatida motivatsiya testi, moslashtirilgan bilim va kommunikativ xulq-atvorni baholashga yo'naltirilgan testlar qo'llanildi. Shuningdek, pedagogik kuzatish, suhbat, anketa so'rovlari va hujjatlar tahlili kabi o'rganish metodlari orqali talabalarning bilim, ko'nikma va motivatsiya darajalari chuqur o'rganildi. O'tkazilgan tahlillar natijasida talabalar motivatsion, kognitiv va faoliyatli mezonlar bo'yicha boshlang'ich ko'rsatkichlarga ega ekanliklari aniqlandi. Tahlil natijalari aksariyat talabalar ijtimoiy-madaniy kompetensiya bo'yicha past darajada ekanligini ko'rsatib berdi. Bu esa talabalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga qaratilgan maxsus ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi.

2. Shakllantiruvchi bosqich (2022-2023-yillar) davomida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-metodik ishlar tizimli ravishda amalga oshirildi. Ushbu bosqichda eduleader.uz platformasi, elektron resurslar va maxsus treninglardan foydalanilib, talabalarni nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatishga e'tibor qaratildi. Rolli o'yinlar, loyihalar va simulyatsiyalar yordamida talabalar ishtirokida boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish mashg'ulotlari tashkil etildi. Bundan tashqari, yangi o'quv dasturlari, keyslar va yo'riqnomalar asosida amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib, talabalar tajriba orttirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiya darajasida sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, talabalar orasida 20% yuqori darajada bilim va ko'nikmalarni muvaffaqiyatli qo'llay boshladi, 30% esa o'rtacha ko'rsatkichlarga erishdi. Ushbu natijalar shakllantiruvchi bosqichda qo'llanilgan metodik yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatib berdi va talabalarning ijtimoiy-madaniy rivojlanishini jadallashtirdi.

3. Yakunlovchi bosqich (2023-2024-yillar) davomida talabalar tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy kompetensiyani baholash va yakuniy natijalarni tahlil qilish ishlari amalga oshirildi. Baholash jarayonida diagnostika vositalari qo'llanilib, nazorat bosqichi o'tkazildi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi talabalari orasida yuqori ko'rsatkichga ega bo'lganlar soni 30% ga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich deyarli o'zgarishsiz qoldi. Ushbu bosqichning yakuniy natijalari tajriba guruhi talabalari tomonidan boshqaruv vazifalarini samarali bajarish qobiliyatining ortganligini va ularning muloqot madaniyatining sezilarli darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Shuningdek, tajriba guruhida talabalar o'zaro muloqot va hamkorlikda samarali ishlash qobiliyatini namoyish etishdi, bu esa ta'lim jarayonida qo'llanilgan metodik yondashuvlarning muvaffaqiyatli ekanligini tasdiqladi. Ushbu natijalar shakllantirilgan kompetensiyalarning barqarorligini va ulardan amaliyotda samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib berdi.


Bunday jarayonlarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning yuqori darajada shakllanishi, talabalarning jamoa bilan ishlash, rahbarlik qilish va murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini oshirishiga yordam beruvchi usullardan biri sifatida ro'yxatga kiritilgan. Shu bilan birga, kompetensiyani shakllantirishda madaniy

farqlarni qabul qilish va ular bilan samarali muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlangan.

Biz matematik va statistik ishlov berish metodologiyasidan foydalangan holda tajriba-sinov ishi natijalarini miqdoriy va sifatli tahlil qilish ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning har bir tarkibiy qismini rivojlantirishda aniq ifodalangan ijobiy dinamikani ko'rsatdik.

Ushbu olingan natijalarning haqqoniyligi va ishonchliligini tekshirish maqsadida statistik tahlil ishlarini Xi-kvadrat (χ^2) mezonida asosida olib borildi.

Tajriba oxirida olingan natijalarning statistik tahlili shuni ko'rsatdiki yakuniy natijalar talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasining motivatsion mezon bo'yicha shakllanish darajasi natijalari tajriba guruhlarida nazorat guruhlariga nisbatan farq qilishi, tanlangan mezon bo'yicha empirik qiymat kritik qiymatdan kattaligi, ishonch oraliqlarining bir biri bilan ustama ust tushmasligi, o'qitish samaradorligini baholash ko'rsatkichlarining birdan kattaligi va talabalarning bilish darajasi noldan kattaligi olib borilgan tadqiqot ishining samaradorligi mavjud ekanligidan dalolat beradi. Bunda samaradorlik 1.17 barobarga yuqori ekanligini ko'rsatdi. Buni o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari va samaradorlik ko'rsatkichlarining diagrammalaridan va ishonch oralig'ini geometrik talqini hamda o'qitish samaradorligini baholash va talabalarning bilish darajasini baholash ko'rsatkichlarining diagrammalaridan ham ko'rish mumkin.



3-rasm. Tajriba oxiridagi tajriba guruhining nazorat guruhiga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlari

Pedagogik tadqiqotlarda gipoteza sifatida nazorat guruhida olib borilgan an'anaviy metodika asosida olingan natijalar tajriba guruhida olib borilgan maxsus metodika asosida olingan natijalar bilan taqqoslanib, tajriba guruhlaridagi natijalarning samarali ekanligi ko'rsatildi. Shuningdek, tajriba-sinovda tinglovchilarning o'zlashtirish darajasi samaradorligini aniqlashtirish maqsadida nazorat va tajriba guruhlarida kursning boshida o'tkazilgan boshlang'ich nazorat va kurs yakunida o'tkazilgan yakuniy nazorat hamda so'rovnoma natijalari dissertatsiyada aks ettirildi.

XULOSA

“Ta'limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish” mavzusida olib borilgan

tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Muammoning nazariy tahlili asosida “raqamlashtirish”, “boshqaruv”, “boshqaruv faoliyati”, “ijtimoiylashuv”, “madaniyat”, “kompetensiya”, “kompetentlik” va “ijtimoiy-madaniy kompetensiya” boshqa asosiy tushunchalarni asoslash va qiyoslash imkonini berdi. Bular tadqiqotimiz obyektlaridan biriga aylandi va mazkur dissertatsiya ishi materiallarida izchil aks ettirildi. Chunonchi, pedagogik adabiyotlarda “boshqaruv” turli (biologik, ijtimoiy, texnik) tabiatli uyushgan (tashkil qilingan) tizimlarning, ularning ma’lum strukturasi saqlab qolinishi, faoliyat rejimining qo’llab-quvvatlanishi, dasturi va maqsadining amalga oshirilishini ta’minlaydigan elementi, funksiyasi sifatida talqin qilinadi.

2. Tadqiqot yuzasidan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish jarayonidagi ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlanganlik darajasini aniqlashda motivatsion, kognitiv, faoliyatli mezonlariga hamda yuqori, o’rta, past daraja va ko’rsatkichlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etdi.

3. Tadqiqot jarayonida ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishning modellashtirilgan jarayoni o’zagini tashkil etuvchi asosiy yondashuvlar (kompetensiyaviy, ijtimoiy-madaniy, hamkorlik, integrativ, innovatsion, kreativ, tizimli, akmeologik, shaxsga yo’naltirilgan, aksiologik yondashuv talabalarga yo’naltirilgan) va tamoyillari (raqamli integratsiya tamoyili; madaniyatlararo aloqadorlik; moslashuvchanlik tamoyili; insonparvarlashuvlik; raqamli muloqot va hamkorlik tamoyili; reflektivlik va o’z-o’zini rivojlantirish tamoyili; tarmoqli o’quv hamkorligi; ijtimoiy javobgarlik tamoyili; ochiqlik va shaffoflik) aniqlandi.

4. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish modeli takomillashtirildi va model maqsad, metodologik, pedagogik jarayon, natijaviy komponentlari hamda motivatsion, konseptual, mazmunli, jarayonli, natija bloklariga asoslanadi.

5. Talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari raqamli texnologiyalarning eduleader.uz platformasida o’qitish texnologiyalaridan foydalanish bosqichlarida boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning intellektual maqsadli rivojlantirish asosida takomillashtirildi.

6. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirishga yo’naltirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari tadqiqot maqsadining to’g’riligini tasdiqlash imkonini berdi.

7. Olib borilgan statistik tahlil tajriba guruhlarida ta’limni raqamlashtirish sharoitida talabalarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash asosida ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlanganligi tajriba guruhidagi o’rtacha o’zlashtirish, nazorat guruhidagiga nisbatan 17% ga yuqori ekanligi isbotlandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) raqamli texnologiyalar asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani rivojlantirish

jarayonlarini oliy ta'limda samarali qo'llashga oid trening dasturlarini muntazam tashkil etish;

2) raqamli texnologiyalar yordamida global madaniy muloqotni kuchaytirish va turli madaniyat vakillarini o'zaro bog'laydigan platformalar yaratish lozim;

3) boshqaruv mutaxassislarini tayyorlashda qo'llaniladigan masofaviy ta'lim, sun'iy intellekt va virtual o'quv muhitlarni qo'llashni yanada kengroq ko'rsatish maqsadga muvofiq;

4) OTMlarda iqtisodiyot yo'nalishi o'quv rejasiga "Boshqaruvda ijtimoiy-madaniy kompetentlik" tanlov fanini kiritish zarur;

5) OTMlarda iqtisodiyot mutaxassisligi majburiy fanlar blokidagi fanlarga "Boshqaruv sohasida ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning o'rni va ahamiyati" modulini kiritish maqsadga muvofiq bo'lardi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.2023. Ped.173.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ПОВЫШЕНИЯ
КВАЛИФИКАЦИИ И ПЕРЕПОДГОТОВКИ КАДРОВ СИСТЕМЫ
ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУРАЕВ ВОХИД ТАДЖИМАМатович

**РАЗВИТИЕ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ НА
ОСНОВЕ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ**

13.00.07 – Менеджмент в образовании

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Ташкент – 2024

Тема диссертации на соискание степени доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.2.DSc/Ped554.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) на веб-странице ученого совета (www.bimm.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Хакимова Мухаббат Файзиевна
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тухтасинов Ильхомджон Мадаминович
доктор педагогических наук, профессор

Мамаражабов Мирсалим Эльмирзаевич
доктор педагогических наук, профессор

Ходжаев Алижон Атабекович
доктор педагогических наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский университет информационных технологий

Защита диссертации состоится « 10 » 01 2025 года в 11:00 часов на заседании Научного совета № PhD.03/30.09.2023.Ped.173.01 при Институте переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования (адрес: Алмазарский район, город Ташкент, улица Зие, 3. Тел.: +99871-202-01-20, info@bimm.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Института переподготовки и повышения квалификации кадров системы высшего образования (зарегистрирована под номером 11). Адрес. Алмазарский район, город Ташкент, Ул. Зие, 3. Тел.: +99871-202-01-20, info@bimm.uz.

Автореферат диссертации разослан « 16 » 12 2024 года.
(протокол реестра № 11 от « 16 » 12 2024 года).



У.Ш.Бегимкулов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

А.С.Джураев
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент

Я.У.Исмадияров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях обостряющихся глобальных информационных и идеологических противостояний особое внимание уделяется внедрению технологий формирования социально-культурного воспитания студентов путем развития их осознанного отношения к социальной жизни. В образовательных учреждениях таких стран мира, как Россия, США, Франция, Китай и Япония реализуются масштабные проекты по внедрению креативных технологий в образовательный процесс, направленных на формирование социально-культурной компетентности студентов. Эти инициативы включают проектирование образовательных и воспитательных процессов, создание новых образовательных стандартов, а также интеграцию образовательных парадигм и технологий в соответствии с требованиями цифровых технологий, такими как концептуальность, системность, управляемость и эффективность.

В мировых образовательных и научно-исследовательских центрах проводятся исследования, направленные на решение инновационных и прагматических проблем развития управленческой деятельности, цифровизацию современных образовательных процессов, а также изучение педагогических и психологических основ восприятия информации. Особое внимание уделяется развитию дистанционного обучения, изучению дидактических и воспитательных возможностей цифровых образовательных технологий, а также формированию социально-культурной компетентности студентов в условиях цифровизации образования. Научные исследования направлены на решение задач по повышению медиаграмотности студентов, совершенствованию стандартного медиаобеспечения образовательных учреждений, развитию компетенций в области работы с веб-браузерами и научными текстами, а также формированию социально-культурной компетентности студентов с помощью цифровых образовательных технологий.

В нашей республике в последние годы на основе опыта развитых зарубежных стран в сфере высшего образования создаются нормативные основы для формирования социально-культурной компетентности студентов посредством инновационных и цифровых образовательных технологий. В рамках семи приоритетных направлений Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы, одной из ключевых задач определено «повышение человеческого достоинства и развитие свободного гражданского общества путем построения гуманистического государства»^{1.5} Это, в свою очередь, требует не только совершенствования социально-педагогических возможностей студентов, но и развития их социально-культурной компетентности.

Настоящее диссертационное исследование в определённой степени способствует выполнению поставленных задач, закреплённых в данных

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года.

документах, в их числе: указы и постановления Президента Республики Узбекистан, такие как: № УП-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по её эффективной реализации» от 5 октября 2020 года, № УП-5847 «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2021 года, № УП-60 «О стратегии развития «Нового Узбекистана» на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, Постановление № ПП-60 «О дополнительных мерах по обеспечению академической и организационно-управленческой независимости государственных высших образовательных учреждений» от 24 декабря 2021 года, Постановление № ПП-61 «О мерах по обеспечению финансовой независимости государственных высших образовательных учреждений» от 24 декабря 2021 года, а также другие нормативно-правовые акты, регулирующие данную сферу, создают основу для реализации задач, направленных на совершенствование образовательного процесса.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан заключается в том, что оно реализовано в соответствии с первым приоритетным направлением, обозначенным в Стратегии развития науки и технологий Республики Узбекистан: «Формирование и реализация системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

